



## Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

<b>“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi</b>	
<b>№</b>	<b>Innovatsion loyiha mavzusi</b>
	<b>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</b>
	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Janubiy Orolbo‘yi hududlarida qoraqalpoq milliy taomlari asosida gastroturizmni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish bo‘yicha innovatsion loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- janubiy Orol bo‘yi hududida yetishtirilgan oziq-ovqat mahsulotlarining sifati – tarkibi ekologik normalar asosida o‘rganilib ularni iste‘mol qiluvchi sayyohlarning sog‘liq xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi;</li> <li>- janubiy Orol bo‘yi hududlaridagi ekologik holatni inobatga olgan holda oziq-ovqat sanoati korxonalarini rivojlantirishning muammo va xususiyatlari iqtisodiy jihatidan asoslanadi, istiqbollari baholanadi;</li> <li>- janubiy Orol bo‘ylarida turizmni yanada kengroq rivojlantirish uchun mintaqaga investitsiya kiritish takliflari ishlab chiqiladi, mintaq turizmi xaritasi shakllantiriladi;</li> <li>- janubiy Orolbo‘yi hududlarida qoraqalpoq milliy taomlari asosida gastroturizmni rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Turizm qo‘mitasida sinovdan o‘tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
	<p><b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2300 barobari</b></p>

*\*Innovatsion loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 2300 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati bir yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

## Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

### “Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Xiva va Bog‘ot tumanlarining turistik resurslarini innovatsion yondashuv asosida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish</p>  	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Xiva va Bog‘ot tumanlarining turistik resurslarini innovatsion yondashuv asosida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratish bo‘yicha innovatsion loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- hududlardagi tarixiy-madaniy va ekologik ahamiyatga ega bo‘lgan turistik obyektlar aniqlanadi va o‘rganiladi;</li> <li>- aniqlangan obyektlar to‘g‘risida ma‘lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash asosida hududlardagi turistik obyektlarni yoritib beruvchi media kontentlar (foto, video), flayerlar, turistik kataloglar shakllantiriladi;</li> <li>- hududlarning turistik salohiyatini oshirishga oid marketing tadqiqotlarini amalga oshirish orqali hududlarga tashrif buyuruvchi turistlarni bozor segmentlariga ajratiladi;</li> <li>- hududlar turistik infratuzilmasini o‘rganish va yaxshilash yuzasidan ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi;</li> <li>- Xiva va Bog‘ot tumanlari turistik obyektlaridan foydalangan holda 5 ta tur-marshrut va 7 ta tur-paket shakllantiriladi;</li> <li>- Xorazm viloyatining Xiva va Bog‘ot tumanlaridagi “Google map” platformasiga kiritilmagan turistik obyektlari platformaga kiritiladi;</li> <li>- Xorazm viloyatining turistik gastronomik xaritasi ishlab chiqiladi;</li> <li>- “Turizm tadqiqotlari va konsalting” markazini shakllantirish orqali mintaqadagi turizm sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, mutaxassislar va barcha manfaatdor tomonlarga konsalting xizmatlarini ko‘rsatishni imkoniyati yaratiladi;</li> <li>- Xiva va Bog‘ot tumanlarining turistik resurslarini innovatsion yondashuv asosida qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Turizm qo‘mitasi hamda Xorazm viloyati hokimligida sinovlardan o‘tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>

**Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2300 barobari**

*\*Innovatsion loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 2300 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati bir yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

## Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

### “Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p style="text-align: center;">Buxoroga tashrif (Visit to Bukhara) elektron onlayn platforma va mobil ilovasini ishlab chiqish</p>  	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Buxoroga tashrif (Visit to Bukhara) elektron onlayn platforma va mobil ilovasini ishlab chiqish bo'yich innovatsion loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- “Visit to Bukhara” elektron onlayn platforma va uning mobil ilovasi ishlab chiqiladi;</li> <li>- Buxoro viloyatining tuman va shaharlar kesimida barcha turistik destinatsiyalar raqamli ma'lumotlari tayyorlanadi;</li> <li>- turistik destinatsiyalar holati to'g'risida aniq ilmiy asoslangan ma'lumotlar to'planadi;</li> <li>- elektron onlayn platforma va mobil ilovada Buxoro viloyati turistik destinatsiyalar ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi hamda bir nechta xorijiy tillarda tarjima qilinadi;</li> <li>- Buxoro viloyatining tuman va shaharlari kesimida barcha turistik destinatsiyalar raqamlashtiriladi hamda QR kodlanadi;</li> <li>- elektron onlayn platforma va mobil ilovada Buxoro viloyatining barcha turistik destinatsiyalarning 3D modeli shakllantiriladi;</li> <li>- Buxoro viloyati turistik obyektlari hududida foydalanish uchun elektron ovozli ilovalar va elektron matnlar yaratiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Turizm qo'mitasi hamda Buxoro viloyati hokimligida sinovlardan o'tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000barobari</b></p>

*\*Innovatsion loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3000barobaridan oshmasligi va bajarish muddati bir yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

## Bajarilishi bir yilga mo'ljallangan innovatsion loyihalar mavzusi

### “Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Innovatsion loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Inklyuziv turizmni tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqish (Navoiy viloyatining Qiziltepa, Nurota va Xatirchi tumanlari misolida)</p>  	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Inklyuziv turizmni tashkil etishning metodik asoslarini ishlab chiqish (Navoiy viloyatining Qiziltepa, Nurota va Xatirchi tumanlari misolida) bo‘yicha innovatsion loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- “turizm hamma uchun” elektron platformasi va mobil ilovasi (Android va IOS tizimlari uchun) yaratiladi;</li> <li>- “to‘siqsiz muhit”ni yaratish va nogironlar uchun qulay infratuzilmani ta’minlash bo‘yicha texnik talablar va standartlar ishlab chiqiladi;</li> <li>- “gapiruvchi shahar” loyihasi ishlab chiqiladi (muzeylar va tarixiy-me’moriy obidalar hududida foydalanish uchun elektron ovozli ilovalar va elektron matnlar yaratiladi);</li> <li>- Navoiy viloyatining Xatirchi, Nurota va Qiziltepa tumanlarida inklyuziv turizmni rivojlantirish uchun yangi turistik marshrutlar va interaktiv tur-paketlar yaratiladi;</li> <li>- turizm sohasida ishlovchi xodimlarni nogironlar bilan muloqot qilish va xizmatlar ko‘rsatishda xavfsizlikni ta’minlash ko‘nikmalarini shakllantirish bo‘yicha malakasi oshiriladi;</li> <li>- imo-ishora o‘zaro aloqa tilini biladigan gid-tarjimon va ekskursiya yetakchilarini tayyorlash bo‘yicha o‘quv modullari ishlab chiqiladi va seminar-treninglar tashkil qilinadi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Turizm qo‘mitasi va Navoiy viloyati hokimligida sinovlardan o‘tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<p><b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3500 barobari</b></p>		

*\*Innovatsion loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 3500 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati bir yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

<b>“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi</b>	
<b>№</b>	<b>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija</b>
<p style="text-align: center;"><b>Amaliy loyiha mavzusi</b></p> <p>Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning monitoringini yuritishda mavjud bo‘lmagan Milliy indikatorlarning texnologiyasini yaratish</p>  	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning monitoringini yuritishda mavjud bo‘lmagan Milliy indikatorlarning texnologiyasini yaratish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- mamlakatimizda xalqaro kambag‘allik chegarasidan pastda bo‘lgan aholining ulushi, ularning jinsi, yoshi, bandlik holati va yashash joyi (shahar/qishloq) bo‘yicha ma’lumotlar yagona bazaga jamlanadi;</li> <li>- milliy tarifga ko‘ra barcha kambag‘allikda yashovchi har qanday yoshdagi erkaklar, ayollar va bolalar ulushini aniqlash uslubiyoti yaratiladi va ko‘rsatkichlar shakllantiriladi;</li> <li>- O‘zbekiston sharoitida aholini o‘rtacha yoki og‘ir darajada oziq-ovqat xavfsizligi bilan ta’minlanmaganlik darajasini aniqlash uslubiyoti yaratiladi va ko‘rsatkichlar shakllantiriladi;</li> <li>- yoshlar va kattalarning ta’limning rasmiy va norasmiy turlari hamda professional ta’limda ishtirok etish darajasini aniqlash uslubiyoti yaratiladi va ko‘rsatkichlar shakllantiriladi;</li> <li>- barqaror rivojlanish sohasidagi Milliy maqsad va vazifalarning monitoringini yuritishda mavjud bo‘lmagan Milliy indikatorlarning texnologiyasini yaratiladi.</li> </ul> <p><b>atijalarni sinovdan o‘tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Statistika agentligida sinovdan o‘tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari</b>	

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*


## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

### “Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Mamlakatda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarining doimiy monitoring tizimini yaratish</p> 	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Mamlakatda ijtimoiy tabaqalashuv tendensiyalarining doimiy monitoring tizimini yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O'zbekiston va hududlarda ijtimoiy tabaqalashuv indeksi shakllantirish uslubiyoti ishlab chiqiladi;</li> <li>- har bir hududning ijtimoiy tabaqalashuv indeksi bo'yicha reyting hisoblanadi va holati eng yomon hududlar uchun chora-tadbirlar ishlab chiqiladi;</li> <li>- hududlarning ijtimoiy tabaqalashuv indeksi uchun vizual karta va ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi;</li> <li>- hududlarning ijtimoiy tabaqalashuv indeksini kuzatish maqsadida elektron platforma yaratiladi;</li> <li>- yaratilgan platforma monitoring natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotnomalar muntazam ravishda e'lon qilinadi va yuqori tashkilotlarga (Senat, Xavfsizlik kengashi va boshqa) taqdim etiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<p><b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 2500 barobari</b></p>		

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 5000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*


## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

<b>“Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi</b>	
<b>№</b>	<b>Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija2</b>
<p style="text-align: center;"><b>Amaliy loyiha mavzusi</b></p> <p style="text-align: center;">BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi” xalqaro reytingida O‘zbekistonning o‘rnini baholashning modellashtirilgan tizimini ishlab chiqish</p> <div style="text-align: center;">  </div>	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi” xalqaro reytingida O‘zbekistonning o‘rnini baholashning modellashtirilgan tizimini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajarildi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O‘zbekistondagi muammolar mavjud bo‘lgan BRMning ayrim ko‘rsatkichlarini bartaraf etish bo‘yicha ilg‘or mamlakatlarning tajribalari o‘rganiladi;</li> <li>- barqaror rivojlanish maqsadlari ustida ishlash jarayonida to‘plangan tajriba va bilimlarni tatbiq qilish va xalqaro hamkorlik doirasidagi ishlarni faollashtirish, milliy BRM larni amalga oshirish uchun zarur resurslarni safarbar qilish bo‘yicha takliflar ishlab chiqiladi;</li> <li>- BRMlarni amalga oshirish ishlarida fan, texnika va innovatsiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni yanada mustahkamlash, BRM taraqqiyotini baholashni uslubiyotini ishlab chiqish, BRMlarni amalga oshirishda asosiy tomonlarning samarali sherikligini rag‘batlantirish hamda ushbu maqsadlarga erishishni ta‘minlash, samarali choralar ko‘rish maqsadida konstruktiv takliflar va tavsiyalar ishlab chiqiladi;</li> <li>- ixtiyoriy milliy hisobotni shakllantirish uchun BRMning har bir maqsadi bo‘yicha tahliliy ma‘lumotnomalar tayyorlanadi;</li> <li>- Oliy Majlis Senatining BRMlar bo‘yicha Qo‘mitasi va xalqaro reytinglar bo‘yicha komissiyasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining BRMlarni monitoring qilish bo‘yicha komissiyasi hamda BRMlarni amalga oshirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashga a‘zo vazirlik va idoralar ishtirokida davra suhbatlari o‘tkaziladi (har yil);</li> <li>- BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari indeksi” xalqaro reytingida O‘zbekistonning o‘rnini baholashning modellashtirilgan tizimini ishlab chiqiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o‘tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Oliy Majlis Senatining BRMlar bo‘yicha Qo‘mitasi va xalqaro reytinglar bo‘yicha komissiyasi, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining BRMlarni monitoring qilish bo‘yicha komissiyasi hamda BRMlarni amalga oshirish bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi Kengashga a‘zo vazirlik va idoralarda sinovlardan o‘tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma‘lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p> <p style="text-align: center;"><b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari</b></p>

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*

## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

### “Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Budjet daromadlarini kengaytirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy zarari kam bo‘lgan qo‘shimcha daromad manbalarini aniqlash tizimini ishlab chiqish</p> 	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Budjet daromadlarini kengaytirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy zarari kam bo‘lgan qo‘shimcha daromad manbalarini aniqlash tizimini ishlab chiqish bo‘yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- bevosita soliqlar (jismoniy va yuridik shaxslarning daromadlaridan olinadigan soliqlar) ma'murchiligi tahlil qilinadi;</li> <li>- daromadlar va xarajatlardan kelib chiqqan xolda majburiy yillik deklaratsiya tizimiga bosqichma bosqich o'tish yuzasidan takliflar tayyorlanadi;</li> <li>- “QQS zanjiri” uzluksizligini ta'minlash hamda uni hisoblash va to'lashdan qochish holatlarini oldini olishga doir yangi tartibdagi QQS ma'murchiligi yaratiladi;</li> <li>- aksiz solig'i qo'llash mumkin bo'lgan aholi sog'lig'iga va atrof-muhitga zarar yetkazayotgan tovar va xizmatlar ro'yxati asoslantirilgan holatda shakllantiriladi;</li> <li>- resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i uchun ijtimoiy normalar ishlab chiqiladi;</li> <li>- ijtimoiy mezonlarni qo'llash orqali soliq bazasini manzilli ravishda kengaytirish mexanizmi tayyorlanadi;</li> <li>- soliqdan boshqa ko'rinishdagi majburiy to'lovlar (jarimalar, davlat xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan davlat bojlari, yig'img'lar) tahlili amalga oshiriladi;</li> <li>- iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan birgalikda Byudjet to'g'risidagi qonun loyihasi va har yillik soliq konsepsiyasi ishlab chiqiladi;</li> <li>- davlat byudjetining kelgusida barqarorligini ta'minlab beruvchi o'rta muddatli fiskal strategiya loyihasi tayyorlanadi;</li> <li>- budjet daromadlarini kengaytirish maqsadida ijtimoiy-iqtisodiy zarari kam bo'lgan qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash tizimini ishlab chiqiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Iqtisodiyot va moliya vazirligi tasarrufidagi tashkilotlarda sinovdan o'tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari</b>		

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*



## Bajarilishi ikki yilga mo'ljallangan amaliy loyihalar mavzusi

### “Iqtisodiyot fanlari” yo‘nalishi

№	Amaliy loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	<p>Davlat organlari boshqaruv kadrlarining xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ilmiy salohiyati va kompetensiyalarni oshirishga yo'naltirilgan interaktiv elektron ilmiy-tahliliy, prognostik modellashtirish platformasini yaratish</p>  	<p><b>Tadqiqotning shakli:</b> Davlat organlari boshqaruv kadrlarining xalqaro reyting va indekslar bo'yicha ilmiy salohiyati va kompetensiyalarni oshirishga yo'naltirilgan interaktiv elektron ilmiy-tahliliy, prognostik modellashtirish platformasini yaratish bo'yicha amaliy loyiha bajariladi.</p> <p><b>Ilmiy-tadqiqot natijalari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>- O'zbekiston uchun ustuvor bo'lgan, shu bilan birga davlat organlari faoliyatini global miqyosda baholab boruvchi tegishli xalqaro reyting va indekslar hamda ularning faoliyatiga doir ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi;</li> <li>- mamlakatimizning ustuvor xalqaro reyting va indekslardagi past ko'rsatkichli indikatorlari va subindikatorlari bo'yicha ularning baholash metodikalari va mezon talablaridan kelib chiqib soha va tarmoqlardagi mavjud tizimli xatoliklar va ularni kelib chiqish sabablari aniqlanadi;</li> <li>- past ko'rsatkichlari indikator va subindikatorlar bo'yicha global reytinglarda peshqadam mamlakatlar hamda mazkur mezonlar bo'yicha ko'rsatkichlarini tez sur'atlar bilan yaxshilab borayotgan mamlakatlarning tajribasi va amalga oshirayotgan islohotlar chuqur o'rganiladi va tahlil qilinadi;</li> <li>- ustuvor xalqaro reyting va indekslarning tarkibiy indikatorlari doirasida muntazam past baholanib kelinayotgan soha va tarmoqlardagi tizimli xatoliklarni va ularni kelib chiqish sabablarini bartaraf etish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi hamda ushbu ma'lumotlar mas'ul va hamkor tashkilotlarga soha va tarmoqlarni rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatli strategiya yo'nalishlarini ishlab chiqishda foydalanish maqsadida taqdim qilinadi;</li> <li>- ustuvor xalqaro reyting va indekslarning tarkibiy indikatorlari doirasida baholanadigan sohalar bo'yicha mas'ul davlat organlari boshqaruv kadrlari uchun malaka oshirish kurslari ilmiy-amaliy o'quv dasturlari hamda o'quv-uslubiy majmua materiallari (ilmiy-amaliy o'quv qo'llanma, ma'ruza matni, taqdimot, videoma'ruzalar, keys-stadi, kazu, test va nazorat savollari) ishlab chiqiladi hamda ularga muvofiq masofaviy ta'lim olish imkoniyatini beruvchi interaktiv elektron ta'lim platformasi yaratiladi.</li> </ul> <p><b>Natijalarni sinovdan o'tkazish:</b> Tadqiqot natijalari Iqtisodiyot va moliya vazirligida va Adliya vazirligida sinovdan o'tkaziladi.</p> <p><b>Ilmiy natijalarni chop etish:</b> Tadqiqot natijalariga intellektual mulk obyektlari uchun tegishli hujjatlar olinadi. Nufuzli ilmiy jurnallarda va Web of Science hamda Scopus ma'lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda ilmiy maqolalar chop etiladi.</p>
<b>Jami yillik: bazaviy hisoblash miqdorining 3000 barobari</b>		

*\*Amaliy loyihaning umumiy moliyalashtirish hajmi bazaviy hisoblash miqdorining 6000 barobaridan oshmasligi va bajarish muddati ikki yilga mo'ljallangan bo'lishi shart*